



Abduqodirova Mahbuba

FarDU o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi,

Maxmidjonov Shoxruxbek

FarDU o'qtuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada erk va istiqlol kuychisi – Cho'lponning hayotiga ilmiy izlanishlar, softuyg'ulari bilan yo'g'rilgan she'rlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar. *Ijodkor, poetik olam, tashbeh, erk, istiqlol, xalq, ko'ngil.*

Аннотация. *В этой статье к анализу были привлечены стихи Эрк и Истикляль куйчи - чолпонниг, написанные с чистыми эмоциями и научными исследованиями.*

Ключевые слова: *творческий, поэтический мир, аллюзия, воля, независимость, народ, душа.*

Annotation: *In this article, scientific research into the life of erk and the Istiqlal singer - Chulponnig, the poems of which were absorbed by their pure feelings, were drawn into analysis.*

Keywords: *creator, poetic world, thirst, erk, istiqilal, people, soul.*

Adabiyotimizning yirik vakillaridan biri shoir, dramaturg, tarjimon Cho'lpon XX asr O'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning lirikasiga nazar tashlar ekanmiz, go'zal she'rlar, takrorlanmas tashbehlar, ajoyib ramzlarga ko'zimiz tushadi. Ijodkorning she'rlarini tahlil qilishdan oldin biz uni hayot yo'llari haqida, u yashagan davrni to'laqonli tasavvur etishimiz kerak. Chunki har qanday ijodkorning xoh u she'ri bo'lsin, xoh asari bo'lishidan qat'iy nazar o'sha ijodkor yashagan davr nuqtayi nazaridan yondashib tahlil etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Cho'lpon tug'ilgan sanani ko'rsatishda har xilliklar yuzaga kelmoqda. Ya'ni ba'zi adabiyotshunoslar, xususan, adabiyotshunos Naim Karimov shoirning tug'ilgan sanasini 1898-yil deb ko'rsatishga urina boshladi. Naim Karimov o'z qarashini tasdiqlashda, "Cho'lpon" nomlari ma'rifat romanida ko'proq shoirning qarindosh-urug'lari, yaqinlari so'zlab bergan xotiralarga tayanadi. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov esa, Cho'lponning tug'ilgan sanasi 1897-yil ekanligi to'g'risidagi xulosasini chiqarganda to'lig'icha shoirning o'zi aytgan yoki so'zlab bergan ma'lumotlarga suyanadi. Uning aniqlashicha, turli arxivlarda Cho'lponning "Xalq dushmani" sifatida aylanib, tergov qilinayotgan chog'da o'z qo'li bilan to'ldirgan anketasi bor ekan. O'sha anketada Cho'lpon o'zining tug'ilgan sanasini 1897-yil deb ko'rsatgan ekan. Ikkinchidan ma'lum vaqt Cho'lpon bilan hamkorlik qilgan mashhur rus yozuvchisi V.Yan shoir to'g'risidagi 30-yillarda nashr etilgan "Katta sovet ensklopediyasi" uchun yozgan maqolasida Abdulhamidning o'zi bergan ma'lumotlarga asoslanib uning tug'ilgan sanasini 1897-yil deb ko'rsatgan ekan. Yaqinlarining ma'lumotlaridan ko'ra o'zi aytgan ma'lumot, albatta, ishonchli va haqqoniy hisoblanadi. Shuning uchun uning tug'ilgan sanasi 1897-yil deb ko'rsatiladi.

Achinarlisi shundaki, Cho'lpon ham xalqimizning boshqa ko'pgina asl farzandlar kabi Stalin qirg'ininig qurboni bo'ldi, 1938-yili "Xalq dushmani" sifatida otildi, asarlarini nashr etish, nashr etilganlarini o'qish va umuman, Cho'lpon nomini tilga olish qat'iy taqiqlandi. Haq gapni ayta olgan insonlar har qanday zamonlarda ham odamlarga yoqavermagan. Shuning uchun ham erk farzandi, istiqlol uchun kurashgan Cho'lponni ham mana shunday ayancli o'lim kutib turgani hech shubhasiz edi. Shuni aytish mumkinki, mana shunday holatlar, ya'ni uni ta'qib etishlari, "Xalq dushmani" sifatida qoralashlari ham shoir qaddini buka olmaydi. Shoir ijoddan bir lahza ham to'xtab qolmaydi. Shunday holatlardan bo'lsa kerak, shoirning hamma bitgan she'rlarida erkka intilishini, xalqni birlikka chorlash, o'z xalqini hech kimdan kam emasligini ko'rsatish tuyg'ulari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Shu jihatdan Cho'lponning "Xalq" she'ri ham e'tiborga molik:

Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir.
Xalq qo'zg'alsa kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin.

Bu mo'jazzgina she'rdan ham ko'rinib turibdiki, shoirning so'z qo'llashdagi mahorati juda yuksakdir. She'rda shunday bir-biriga hamohang so'zlarni marjon kabi teradi, ya'ni xalqni dengizga, to'liqiga, kuchga, isyonga, olovga, o'chga o'xshatadi. Bu esa she'rning badiiy jozibasini, ohangdorligini yanada oshirgan. She'rning umumiy go'yasiga to'xtaladigan bo'lsak, unda muallif, birinchidan, xalqning buyuk kuch ekanligini yaxshi ifodalaydi. Ikkinchidan, u o'lkaning ozodlikka, mustaqillikka erishuvini o'zining oliy istagi deb hisoblaydi. Uchinchidan, shoir ijod ahlini xalq bilan hamisha birga bo'lishga, "quchoq ochib xalq ichiga" kirishga undaydi. Yana shoir bu she'rida ozodlik va erk mavzusini boshqacha yo'sinda, g'oyat aniq va tiniq bo'yoqlarda aks ettirgan. Shoir she'rda xalqning buyuk kuch-qudrat sohibi ekanini tasvirlash bilan birga, uning eng ezgu va muqaddas istagini ham obrazli tarzda ifodalab beradi. Boshqacha qilib aytganda, xalq istagi o'z erkin, o'z qo'liga olib, ozodlikka erishishdir. Cho'lpon nazdida xalq istagi qo'zg'alsa, uni hech qanday kuch tutib qola olmaydi. Faqat gap xalqda ana o'sha tilakni, istakni uyg'ota olishdagina ekanligini ham teran angladi. Buni shoir mana bu misra orqali isbotlaydi:

Xalq istagi – ozod bo'lsin bu o'lka,
Ketsin uning boshidagi ko'lanka.

Bu misrada shoir ko'lanka orqali mustamlakachilikni nazarda tutyapti. Shu mustamlakachilikni yo'q bo'lishini orzulayapti va bu misra orqali o'zining orzusini xalq istagiga aylantirishga chorlayapti. Shoir bu she'riga sarlavhani ham chiroyli tanlay olgan, ya'ni misralarda ko'p bora takrorlangan so'zni aynan sarlavha sifatida olishi bu she'rning jozibasini, badiiy estetikasini yanada yuqorilatgan. Bu ham bo'lsa shoirning badiiy mahoratidan dalolat. She'rni xalqqa murojaat, xalqqa chorlov sifatida ham baholasak bo'ladi. Chunki she'rning har bir misrasini o'qir ekanmiz, unda shoir xalqni birlashishga, xalqni uyg'otishga harakat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Shoir erksizlikka qarshi kurashish, mustamlakachilikka nisbatan isyon, xalqni hurlikka chorlash butun vujudini qamrab olgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerakli, uning hamma chizgilarida hamohanglikni kuzatishimiz mumkin. Shoirning "Ko'ngil" she'rida ham

xuddi shunday g'oyalar o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin. Bu she'rdida shoir ko'ngilga murojaat etib, bo'ysunmaslikka chaqiradi:

Tiriksan, o'lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan.

Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki sen ham hur tug'ulg'onsen.

Yoki shoirning "Men va boshqalar" she'rida erk istab nola chekadi:

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo'shig'ini tinglagan menman.

Erkin boshqalardir, qamalgan menman,

Hayvon qatorida sanalgan menman.

Bu misralardan ham ko'rinib turibdiki, Cho'lponning boshqa she'rlari kabi bu she'rida ham erklikka intilishini, qullikdan qutulishni istayotgan shoirning yoniq qalbi ifodalangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak Cho'lponning yuqoridagi she'rlaridan ham ko'rinib turibdiki, u xalqni ozodlikka, hurlikka, birlashsa katta kuchga aylanishga targ'ib etgan. Shuning uchun ham Cho'lponni tilga olganimizda beixtiyor erk, vatan, istiqloq kabi tushunchalar yodimizga tushadi. Cho'lpon she'rlarida tarannum etgan, orzulagan mustaqillik hozirgi kunimizda bor, shu boisdan ham biz kimdirlar uchun orzu bo'lgan mana shunday yorug' kunlarimizga shukronalik hissini tuyishimiz darkor. Cho'lponning lirikasi makon va zamon tanlamasligi, tushunarli, sodda tilda yozilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Cho'lpon poetikasi katta ta'sir kuchga ega ekanligi bilan yillar suronidan mardonavor o'tib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev Saydulla "XX asr o'zbek adabiyoti" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2005
2. Sanjar Sodiq "Yangi o'zbek adabiyoti tarixi" "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent 2019
3. Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
4. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.
5. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 520-524.
6. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. Modern Science and Research, 2(6), 1231-1235.
7. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. Интернаука, (15-3), 75-76.
8. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.

9. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
10. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM" ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI. Nazariy Va Amaliy Fan, (5), 590-592.
11. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.
12. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.
13. Oripova, G. , & Mirzajonova, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
14. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501